



ILMIY VA BADIY TARJIMANING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Muhiddinova Zebiniso

Andijon Davlat Chet tillar instituti

Tarjima nazariyasi amaliyoti fakulteti 3-kurs talabasi

Ilmiy rahbar: Filologiya fanlari bo'yicha falsafa

doktori (PhD) G.A.Nabiyeva

Annotatsiya: Ushbu maqolada ilmiy va badiiy tarjimaning o'ziga hos xususiyatlari o'zaro tahlil qilinadi. Tarjima nazariyasining muhim yo'nalishlaridan biri bo'lgan ushbu ikki tur o'tasidagi tub farqlar, ularning maqsadi, vazifasi tili va uslub xususiyatlari hamda tarjimondan talab qilinadigan mahorat nuqtayi nazaridan yoritildi. Ilmiy tarjimaning asosiy vazifasi axborotni aniq to'liq yetkazish bo'lib, unda terminlarning qat'iyligi va mantiqiy izchillik ustuvor ahamiyat kasb etadi. Badiiy tarjima esa estetik ta'sir ko'rsatish, obrazlik va muallif uslubini saqlab qolish asosiy mezon hisoblanadi. Bu ikki yo'nalish tarjimondan tubdan farqli yondoshuvlarni talab qilinishi yoritib beriladi.

Annotation: This article analyzes the distinctive characteristics of scientific and literary translation. As one of the major branches of translation theory, it highlights the fundamental differences between these two types-their objectives, target language functions and stylistic features, and the skills required of the translator. The primary task of scientific translation is to convey information accurately and completely, where the precision of terminology and logical consistency take precedence. Literary translation, on the other hand, is primarily judged by its aesthetic impact, imagery, and preservation of the author's style. The article shows that these two approaches demand fundamentally different approaches from the translator.



Kalit so'zlar: Ilmiy tarjima, badiiy tarjima, tarjima nazariyasi, terminlarning qat'iyligi, mantiqiy izchillik, estetik ta'sir, muallif uslubi, obrazlilik, tarjimon mahorati.

Keywords: scientific translation, literary translation, translation theory, terminological rigor, logical consistency, aesthetic impact, author's style, imagery, translator's skill.

Ключевые слова: научный перевод, литературный перевод, теория перевода, терминологическая строгость, логическая последовательность, эстетическое воздействие, авторский стиль, образность, мастерство переводчика.

Tarjima nazariyasi adabiyotshunoslik va tilshunoslikning muhim sohalaridan biri hisoblanadi, bir tildan ikkinchi bir tilga o'girish jarayoning qonuniyatlarini

o'rganadi. Tarjima faoliyati o'z ichiga bir qancha yo'nalishlarni oladi. Ular ichida ilmiy va badiiy tarjima alohida o'rin tutadi. Ushbu tarjima turlari bir biridan o'z maqsadi, vazifasi uslubiy xususiyatlari va tarjimondan talab qilinadigan mahorat darajasi bilan farq qiladi. Ilmiy tarjima aniq axborotni to'liq va izchil yetkazib bersa, badiiy tarjima esa estetik ta'sir ko'rsatish, obrazlilik va muallif uslubini saqlab qolishni ustivor vazifa qilib belgilaydi. Mazkur maqolada aynan shu ikki tarjima turning o'ziga xos xususiyatlari qiyosiy tahlil qilindi, ular ortasida farq jihatlari yoritib berildi, hamda har bir yo'nalishda tarjimondan talab etiladigan ko'nikma va malakalar tahlil qilindi.

Ilmiy tarjima fan-texnika, iqtisod, huquq va boshqa maxsus sohalarga oid matnlarni bir tildan ikkinchi tilga o'girish jarayonidir. Ushbu tarjima turining asosiy vazifasi berilgan axborotni aniq, to'liq va buzib ko'rsatishdan yetkazishdan iborat. Ilmiy matnlarda terminlarning qat'iyligi, mantiqiy izchillik va aniqlik ustivor



ahamiyat kasb etadi. Shu bois ilmiy tarjimon sohaga oid terminalogiyani mukammal bilish, mantiqiy bo‘lanishlarni saqlay olishi talab etiladi. Ilmiy tarjimada muallifning shaxsiy uslubi ikkinchi darajali ahamiyatga ega bo‘lib asosiy e’tibor axborotning

to‘liq va ishonchli yetkazilishiga qaratiladi. Badiiy tarjima esa adabiy asarlar-she’r, qissa, drama va boshqa janrlarni boshqa tilga o‘girish jarayonidir. Ushbu tarjima turining bosh maqsadi estetik ta’sir ko‘rsatish, obrazlilikni saqlash va muallif uslubini qayta tiklashdan iborat. Badiiy matnda so‘zlar nafaqat ma’no ifodalaydi, balki obraz yaratish, hissiyot uyg‘otish va estetik zavq berish vazifasini ham bajaradi. Shuning uchun badiiy tarjima ikki tilni mukammal bilish bilan birga, adabiy iste’dodga ega bolish, muallifning uslubini his qila olish va obrazlarni yangi tilda qayta yarata olish lozim. Badiiy tarjimonda so‘zma - so‘z tarjima emas, balki ijodiy yondashuv muhim rol o‘ynaydi. Ilmiy va badiiy tarjima o‘rtasidagi farqlarni quydagi jihatlarida yaqqol ko‘rish mumkin:

1. Maqsad jihatidan: ilmiy tarjima axborot yetkazishni, badiiy tarjima estetik ta’sir ko‘rsatishni maqsad qiladi.

2. Til va uslub xususiyatlari: ilmiy tarjimada terminlarning qat’iyligi va mantiqiy izchillik, badiiy tarjimada obrazlilik va ifodaviylik ustuvor.

3. Tarjimonga quyiladigan talablar: ilmiy tarjimon soha terminalogiyasini bilishi, badiiy tarjimon esa adabiy iste’dod va ijodiy yondashuvga ega bo‘lish kerak.

4. Muallif uslubiga munosabat: ilmiy tarjimada muallif uslubi ikkinchi darajali, badiiy tarjimada esa uni uni saqlash asosiy vazifalardan biri.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, ilmiy va badiiy tarjima, tarjima nazariyasining ikki eng muhim yo‘nalishlaridan bo‘lib, aytib o‘tganimizdek ularning o‘z vazifalari, maqsadlari, til va uslub xususiyatlari hamda tarjimondan talab qilinadigan mahorat jihatidan tubdan farq qiladi. Ilmiy tarjima aniq axborot



yetkazish, terminlarning qat'iyliigi va mantiqiy izchillik ta'minlashning asosiy vazifasi qilib belgilandi. Badiiy tarjima esa estetik ta'sir ko'rsatish, obrazlilik va muallif uslubini saqlab qolishni ustivor mezon sifatida olg'a suradi. Ushbu ikki yo'nalish tarjimonda butunlay boshqacha yondashuv va ko'nikmalarni talab qiladi. Ilmiy tarjimon sohaga oid bilimlarni va terminalogiyani mukammal egallagani bo'lishi lozim bo'lsa, badiiy tarjimon ikki tilni bilish bilan birga, adabiy iste'dod va ijodiy qobiliyatga ham ega bo'lishi kerak. Mazkur farqlarni chuqur anglash tarjima jarayoninig sifatini oshirish va har bir yo'nalishda yuqori darajadagi tarjima mahsulotini yaratish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. G'aybulla Salomov "Tarjima nazariyasiga kirish" (Toshkent, 1978)
2. Qudrat Musayev "Tarjima nazariyasi" (Toshkent, 2005)
3. in-academiya.uz <https://in-academy.uz>
4. spaceknowledge.com <https://spaceknowledge.com>
5. <https://moodle.tsuos.uz>